

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI № DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

ESHMATOV BAXTIYOR XASANOVICH

**QATLAMLI O‘ZAKLANGAN KOMPOZIT QOBIQLARNING
KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANGANLIK VA DINAMIK
HOLATINI BAHOLASH UCHUN MATEMATIK MODELLAR VA
HISOBLASH USULLARI**

**05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui.
01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
физико – математических наук**

**Contents of dissertation abstract of the doctor (DSc)
of physical and mathematical sciences**

Eshmatov Baxtiyor Xasanovich

Qatlamli o‘zaklangan kompozit qobiqlarning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik va dinamik holatini baholash uchun matematik modellar va hisoblash usullari

3

Эшматов Бахтиер Хасанович

Математические модели и численные методы для оценки напряженно-деформированного и динамического состояния слоистых армированных композитных оболочек

31

Eshmatov Bakhtiyor Khasanovich

Mathematical models and numerical methods for estimating the stress-strain and dynamic state of layered reinforced composite shells

61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

65

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI № DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

ESHMATOV BAXTIYOR XASANOVICH

**QATLAMLI O‘ZAKLANGAN KOMPOZIT QOBIQLARNING
KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANGANLIK VA DINAMIK
HOLATINI BAHOLASH UCHUN MATEMATIK MODELLAR VA
HISOBLASH USULLARI**

**05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui.
01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/FM255 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://tiame.uz>, info@ifar.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar:

Mirsaidov Mirziyod

O‘zR FA akademigi, texnika fanlari doktori, professor

Abdikarimov Rustamxan Alimxanovich

Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarov Ismoil Ibroximovich

Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Ravshanov Normaxmad

Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Nuraliyev Faxriddin Murodillaevich

Texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil «_____» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Toshkent sh., 100000, Q.Niyoziy ko‘chasi 39 uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 108-katta majlislar zali; (+99871) 237-09-61; faks: (+99871) 237-48-67, e-mail: info@ifar.uz.)

Dissertatsiya bilan “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Toshkent sh., 100000, Q.Niyoziy ko‘chasi 39 uy. Tel.: (+99871) 237-09-61).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «____» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «____» _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

B. J. Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
O‘zR FA akademigi, fizika-matematika
fanlari doktori, professor

D. R. Rayimbayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
fizika-matematika fanlari doktori

A. R. Hayotov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda, insonning zamonaviy muhandislik faoliyatini rivojlantirish jarayonida ishlab chiqarish texnikasi va uni yaratish texnologiyasi murakkablashib bormoqda, shuning uchun muhandislik konstruksiyalarida yangi materiallardan, qoida tariqasida, bir jinsli bo‘lmagan – berilgan fizik-mexanik xususiyatlar majmuasidan foydalanish zarurati paydo bo‘ladi. So‘nggi yillarda tobora ko‘proq foydalanilayotgan bir jinsli bo‘lmagan materiallarning turlaridan biri bu kompozitsion materiallardir. Bunday materiallardan muhandislik konstruksiyalarida foydalanish nafaqat ularning ishlash xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi, balki ba’zi hollarda an’anaviy materiallar doirasida amalga oshirilmaydigan konstruksiyalarni yaratishga imkon beradi. Muhandislik amaliyotida yangi kompozitsion materiallardan foydalanish, mustahkam, yengil va ishonchli konstruksiyalarni loyihalash va yaratish matematik modellarni, yupqa devorli konstruksiyalarning qatlamli o‘zaklangan elementlarining statikasi va dinamikasi masalalarini takomillashtirishni va kompozitsion materiallarning haqiqiy xususiyatlarini hisobga oladigan sonli hisoblash usullarini ishlab chiqishni talab qiladi.

So‘nggi yillarda dunyoda turli sanoat va qurilish sohalarida kompozitsion materiallardan foydalanishning jadal o‘sishi kuzatilmoqda. Ushbu o‘shishning sababi oxirgi foydalanuvchilar tomonidan, ayniqsa aerokosmik va mudofaa sohalarida uglerod tolalariga bo‘lgan talabning ortishi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda kompozitsion materiallar bozori 114 milliard dollarga baholanmoqda va 2027 yilga kelib taxminan 170 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu 2022 yildan 2027 yilgacha o‘rtacha 8.2 foizga ortdi degani.

Shuningdek, respublikamizda sanoat va qurilishda kompozitsion materiallardan konstruksiyalarni ishlab chiqarish va keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yangi zamonaviy kompozitsion materiallarga bo‘lgan ehtiyoj ularning fizik-mexanik va kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish uchun ilmiy-tadqiqot markazlari va laboratoriyalarning sonini ko‘paytirishga yordam beradi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada ushbu faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-165-son Farmoni, unda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning ustuvor tarmoqlari qatoriga kiritilgan “**yangi kompozit materiallarni** ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish” ga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida “... yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan qayta tiklanuvchi energetika, **yangi kompozit materiallar**, robototexnika, biotexnologiya, oziq-ovqat xavfsizligi, aqlli qishloq xo‘jaligi, aqlli tibbiyot, aqlli sanoat va klasterlash (mis va vinochilik) kabi strategik yo‘nalishlar bo‘yicha sun‘iy intellekt, buyumlar interneti hamda raqamlashtirish

texnologiyalarini joriy etishda resurslarni jamlash, yangi ish o‘rinlari va mahsulot yaratish hamda yangi xizmatlar tashkil qilish” aytib o‘tilgan. Ushbu loyihalarni zamonaviy dasturiy vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emasligini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

PF-144-son Farmoniga ham e’tibor qaratish lozim. Ushbu hujjatga ko‘ra, “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetiga zamonaviy sonli usul va dasturlardan (**PLAXIS, ANSYS, ABAQUS** va boshqalar) foydalangan holda “Suv omborlari va gidrotexnika inshootlarining zilzilabardoshligini baholash” o‘quv-ilmiy laboratoriyasini tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiya rivojlanishining IV: “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.

Hozirgi kunda dunyoning taniqli yetakchi ilmiy markazlari va oliy o‘quv yurtlarida – Virjiniya Politexnika universiteti (AQSH), Texas A&M universiteti (AQSH), Sharqiy Michigan universiteti (AQSH), Janubiy Florida universiteti (AQSH), Shanxay Jiao Tun universiteti (Xitoy), Lill universiteti (Fransiya), Rossiya Fanlar Akademiyasining Amaliy mexanika instituti (Rossiya), M.V.Keldish nomidagi Amaliy matematika instituti (Rossiya), Rossiya Fanlar Akademiyasi Sibir bo‘limining S.A.Xristianovich nomidagi Nazariy va amaliy mexanika instituti (Rossiya), Buyuk Pyotr Sankt-Peterburg Politexnika universiteti (Rossiya), S.P.Timoshenko nomidagi Mexanika instituti (Ukraina), Latviya universiteti (Latviya), Armaniston Respublikasi Milliy Fanlar Akademiyasining Mexanika instituti (Armaniston) va boshqalar kompozit materiallardan tayyorlangan yupqa devorli o‘zaklangan konstruksiyalar elementlarini statik va dinamik hisoblash sohasida faol ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda ushbu markazlarda olib borilayotgan kompozitsion materiallardan yupqa devorli konstruksiyalar elementlarning statikasi va dinamikasi masalalarini o‘rganishning eng dolzarb yo‘nalishlari quyidagilardir: konstruksiya materialining bir jinsli bo‘lmaganligini hisobga olgan holda yupqa va qalin qobiqlarning yagona nazariyalarini (shu jumladan uch o‘lchovli nazariyalarni) ishlab chiqish (Sharqiy Michigan universiteti, AQSH); ko‘p qatlamli kompozit plastinalar va qobiqlarning matematik modellarini takomillashtirish (A&M Texas universiteti, AQSH); muhandislik materiallarini modellashtirish va kompozit materiallardan konstruksiyalarni tezlashtirilgan sinovdan o‘tkazish usullarini ishlab chiqish (Virjiniya Politexnika universiteti, AQSH); nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida kompozit konstruksiyalarni optimal o‘zaklashini ishlab chiqish (M.V.Keldish nomidagi Amaliy matematika instituti, Rossiya); statik va dinamik yuklanish hamda har xil harorat rejimlari sharoitida ishlaydigan o‘zaklangan, ko‘p qatlamli anizotrop, tarkibiy-bir jinsli bo‘lmagan, kompozit va

boshqa konstruksiyalarni tadqiq qilish (Rossiya Fanlar Akademiyasi Sibir bo'limining S.A.Xristianovich nomidagi Nazariy va amaliy mexanika instituti, Rossiya) va boshqalar.

Materialning geometrik va fizik parametrlarining kompozitsion materiallardan yupqa devorli konstruksiyalar elementlarining kuchlanganlik-deformatsiyalangan holatiga ta'siri muammolarini hal qilish uchun matematik modellar, sonli usullar, algoritmlar va dasturiy vositalar nazariyasini ishlab chiqish va qurish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni alohida e'tirof etamiz: ko'p qatlamli o'zaklangan yupqa devorli konstruksiyalarning kuchini baholash va prognoz qilish usullarini ishlab chiqish; turli statik va dinamik yuklar ta'sirida yupqa devorli konstruksiyalarni buzilish xavfini kamaytirishning samarali usullarini ishlab chiqish; materiallarning haqiqiy fizik-mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda yupqa plastinalar va qobiqlarning ustuvorligi masalalarini hal qilish uchun nazariy asoslarni yaratish va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qatlamli yupqa devorli anizotrop o'zaklangan konstruksiyalar elementlarining kuchlanganlik-deformatsiyalangan holatini o'rganishda, statik va dinamik masalalarini hisoblash uchun nazariyalar, matematik modellar va usullarni yaratishda alohida hissa qo'shgan taniqli olimlar majmuasiga quyidagilar kiradi: S.A.Ambartsumyan, S.G.Lexnitskiy, X.M.Mushtari, P.M.Ogibalov, M.A.Koltunov, I.E.Troyanovskiy, J.E.Ashton, J.M.Whitney, E.I.Grigolyuk, P.P.Chulkov, V.V.Vasiliev, R.M.Jones, J.N.Reddy, M.S.Qatu, Y.V.Nemirovskiy, V.T.Gnuni, A.K.Malmeyster, V.P.Tamuj, G.A.Teters, A.E.Bogdanovich, I.M.Tuneyeva, V.D.Kubenko, P.S.Kovalchuk, L.V.Kurpa, A.Kaw, R.F.Gibson va boshqalar.

O'zbekistonda M.T.O'razboyev, V.K.Qobulov, F.B.Abutaliyev, T.B.Buriyev, T.Sh.Shirinqulov, S.S.Negmatov, F.B.Badalov, B.Mardonov, X.Eshmatov, M.Mirsaidov, K.Sultonov, T.Mavlyanov, I.I.Safarov, N.Ravshanov, SH.M.Shadimetov, B.A.Xudayarov, R.SH.Indiaminov, A.B.Ahmedov, R.A.Abdikarimov, M.K.Usarov va boshqalar tarkibiy elementlarning kuchlanganlik-deformatsiyalangan holatini baholash va prognoz qilish uchun matematik modellar va hisoblash usullarini ishlab chiqishda katta hissa qo'shdilar.

Shu bilan birga, qovushqoq-elastik xususiyatlarga ega va o'zaklangan tolalarning turli yo'nalishlariga ega qatlamlardan tashkil topgan yupqa devorli qatlamli o'zaklangan kompozit konstruksiyalar elementlarida sodir bo'ladigan jarayonlarni matematik modellashtirishda katta bo'shliqlar mavjud.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining KXA-15-041 ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiruvchi "Kompozitsion materiallardan tayyorlangan qovushqoq-elastik yupqa devorli konstruksiyalar dinamikasining chiziqli bo'lmagan masalalarini yechishning samarali usullarini ishlab chiqish" (2009-2011) loyihasi; O'zbekiston Respublikasining 2021-2026 yillarga mo'ljallangan FZ-20200929327-sonli "Chiziqli bo'lmagan filtrlash va tuproq namligini hisobga olgan holda tuproq to'g'onlarining mustahkamligi uchun

ishonchli texnologiya va nazariyani ishlab chiqish” mavzusi; “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetida 2021-2023-yillarda “Materiallarning nohiziqli deformatsiyasini hisobga olgan holda yer osti inshootlarining mustahkamligi va dinamikasini hisoblashning istiqbolli usullarini ishlab chiqish” davlat budjet mavzusi doiralarida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi Kirxgof-Lyav va Timoshenko nazariylari doirasida materialning geometrik nohiziqiligi va dissipativ xususiyatlarini hisobga olgan holda kompozitsion materiallardan yasalgan yupqa devorli anizotrop o‘zaklangan konstruksiya elementlarining statik va dinamik masalalarini nazariy asoslari, yechish uchun matematik modellar va usullarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- yupqa devorli anizotrop o‘zaklangan konstruksiyalar elementlarining kuchlanganlik-deformatsiyalangan holatini o‘rganish uchun nazariy asoslarni va umumlashtirilgan matematik modelni ishlab chiqish;

- anizotropiyaga ega statik va dinamik yuklar ta’sirida bo‘lgan yupqa devorli o‘zaklangan konstruksiyalar uchun chiziqli bo‘lmagan chegaraviy masalalarni sonli yechish uchun matematik modellar va usullarni takomillashtirish;

- tashqi yuklar ta’siri ostida qovushqoq-elastik yupqa devorli o‘zaklangan konstruksiyalar dinamikasini baholash uchun kuchsiz-singular yadroli bo‘linmaydigan chiziqsiz integro-differensial tenglamalar sistemasini olish;

- statik va dinamik yuklar ta’sirida qovushqoq-elastik yupqa devorli o‘zaklangan konstruksiyalar dinamikasi masalalarini sonli yechish uchun samarali yechim algoritmi va dasturiy vositalarni ishlab chiqish;

- turli fizik-mexanik va geometrik parametrlarning yupqa devorli o‘zaklangan qovushqoq-elastik konstruksiyalarning elementlarining statik va dinamik ta’sirini o‘rganish;

- qatlamli o‘zaklangan kompozit konstruksiyalarining elementlarini kuchlanganlik-deformatsiyalangan va dinamik holatini baholash uchun dasturiy vositalar majmuini yaratish.

Tadqiqot obyekti. Turli sanoat va qurilish sohalarida ishlatiladigan qatlamli anizotrop yupqa devorli o‘zaklangan konstruksiya elementlari.

Tadqiqot predmeti. Turli xil yuklar ta’sirida anizotrop o‘zaklangan yupqa devorli konstruksiya elementlarning ichki kuch omillarini hamda dinamik holatini baholash uchun nazariy asoslar, matematik modellar, sonli usullar, algoritmlar va dasturiy vositalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida Bubnov-Galerkin usuli, kuchsiz-singular relaksatsiya yadroli nohiziqli integro-differensial tenglamalar sistemani yechish usullari, kvadratura formulalari usuli, hisoblash eksperimentlar, Gauss usuli, cheklangan elementlar usuli qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- kompozit konstruksiyalar elementlarining qatlamliligini hisobga olgan holda qovushqoq-elastik anizotrop plastinalar, panellar va qobiqlarning dinamikasini baholash uchun nazariy asoslari takomillashtirildi;

- Kirxgof-Lyav va Timoshenko nazariyalari doirasida qovushqoq-elastik anizotropik o'zaklangan qatlamli konstruksiya elementlar dinamikasi masalalarining matematik modellari ishlab chiqilgan bo'lib, ular har bir qatlamda o'zaklangan tolalar yo'nalishini hisobga olishga imkon beradi;

- nochiziqli tebranishlar va qovushqoq-elastik anizotrop o'zaklangan plastinalar va qobiqlarning dinamik ustuvorligi masalalarini o'rganish uchun oddiy ajralmaydigan integro-differensial tenglamalar sistemalari dinamik tez o'sadigan siqilish va siljish yuklarini hisobga olgan holda olingan;

- yupqa devorli o'zaklangan qovushqoq-elastik konstruksiya elementlarining nochiziqli tebranishlar va dinamik ustuvorligi masalalari uchun oddiy nochiziqli integro-differensial tenglamalar sistemani sonli yechish uchun hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

- Delphi algoritmik tilida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot asosida anizotropik o'zaklangan qovushqoq-elastik yupqa devorli plastinalarning turli xil yuklar, chegara shartlari va o'zaklangan tolalar yo'nalishi bo'yicha dinamik harakati o'rganildi;

- ABAQUS muhandislik dasturiy kompleksi yordamida anizotrop o'zaklangan to'rtburchak plastinalarning qanotsimon konfiguratsiyasining kuchlanganlik-deformatsiyalangan holati o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Fizik-mexanik va geometrik parametrlarini va o'zaklangan tolalarning yo'nalishini hisobga olgan holda kompozit materiallardan yasalgan o'zaklangan plastinalar, panellar va qobiqlarning dinamik va kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholash va prognoz qilish uchun sonli usullar, algoritmlar va amaliy dasturlar majmuasini yaratishdan iboratdir.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi yupqa devorli plastinalar va qobiqlar nazariyasining sinovdan o'tgan matematik apparati yordamida chegaraviy masalalarni to'g'ri qo'yish, matematik hisoblashlarning qat'iyligi, asosli yechim usullaridan foydalanish, aniq analitik yoki taqribiy sonli yechimlar ma'lum bo'lgan bir qator model masalalarini hal qilish, ko'rib chiqilgan masalalarning har biri uchun natijalarni kerakli aniqlikka qadar amaliy yaqinlashishini tekshirish, ishlab chiqilgan metodologiya bo'yicha olingan natijalarni taqqoslash, algoritmlar va hisoblash dasturlari model masalalarining ma'lum yechimlari bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati. O'tkazilgan tadqiqotlarning ilmiy ahamiyati kompozit konstruksiyalarning yupqa devorli elementlari nazariyasini rivojlantirishga muhim hissa qo'shadigan va ularning turli xil konstruksiya xususiyatlarini statik va dinamik ta'sirlar ostida hisobga olishga imkon beradigan nazariy asoslar va matematik modellar, usullar va algoritmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Amaliy ahamiyati qatlamli o'zaklangan konstruksiyalar elementlarining mustahkamligi va dinamik holatini baholash va materialning haqiqiy xususiyatlarini hisobga olgan holda inshootlarni loyihalashda tadqiqot natijalaridan amaliy foydalanish uchun ishlatiladigan algoritmlar va amaliy dasturlar majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalarini tadbiiq qilish.

Yupqa devorli qatlamli o‘zaklangan konstruksiyalarning statikasi va dinamikasini sonli tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan matematik modellar, hisoblash usullari va algoritmlari asosida turli xil yuklar ta’sirida kompozitsion materiallardan tayyorlangan konstruksiyaviy elementlarning mustahkamligi matematik hisob-kitoblari amalga oshirildi. Ushbu hisob-kitoblar “Kimyoviy texnologiya”, “Real Lion Houses”, “New World Star” va “Nurobod House” MCHJlarda (“O‘zsanoatqurilishmateriallari” ning 2024 yil 3 iyundagi 02/15-1336 - sonli ma’lumotnomasi) joriy etilgan. Ilmiy-tadqiqot natijalarining joriy etilishi konstruksiyaning og‘irligini kamaytirish hisobiga sarf materiallarini 20 million so‘mdan ortiq tejashga imkon berdi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 14 ta xalqaro ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Dissertatsiya ishining to‘liq mazmuni:

- “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetining “Mexanika va kompyuterli modellashtirish” kafedrasida huzuridagi “Mexanika muammolari” respublika ilmiy seminari (2024-yil 6-apreldagi 19-sonli bayonnoma);

- Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy seminari (2024-yil 9-apreldagi 1-sonli bayonnoma);

- Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi “Hisoblash matematikasi va matematik modellashtirishning zamonaviy muammolari” ilmiy seminari (2024-yil 18-apreldagi 8-sonli bayonnoma);

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T.O‘rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi ilmiy seminari (2024-yil 7-maydagi 3-sonli bayonnoma);

- “Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish” ilmiy-tadqiqot instituti qoshidagi “Murakkab tizimlarni modellashtirish” laboratoriyasining ilmiy seminarlarda (2024 yil 14 maydagi 2-sonli bayonnoma) muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 43 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib ulardan 1 tasi monografiya, 2 tasi intellektual mulk huquqi guvohnomasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi OAKning fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 26 ta maqola, shu jumladan respublika jurnallarida 6 ta maqola va xalqaro jurnallarda 20 ta maqola (Scopus ma’lumotlar bazasida indekslangan nashrlarda 18 ta maqola va Web of Science ma’lumotlar bazasida 13 ta maqola) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 194 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqotning maqsadi, hal

qilinishi kerak bo'lgan asosiy muammolar ko'rsatilgan. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ko'rib chiqilgan muammolarni hal qilish usullari, himoya qilinadigan asosiy natijalar tavsiflangan va sanab o'tilgan. Ishda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek ularni amalga oshirish, matbuotda e'lon qilish, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kompozitsion materiallar. Asosiy xususiyatlari. Kompozit materiallar mexanikasi sohasidagi tadqiqotlarning hozirgi holati”** uchta paragrafdan iborat. Bobning birinchi paragrafida kompozitsion materiallar, ularning tasnifi va asosiy xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. An'anaviy materiallarga nisbatan kompozit materiallardan foydalanishning afzalliklari batafsil bayon etilgan.

Ikkinchi paragrafida qatlamlı o'zaklangan kompozit materiallarning asosiy xususiyatlari keltirilgan. Odatda, qatlamlı konstruksiyalarda tolalı o'zaklangan material qatlamlari bir-biriga mahkamlanadi, har bir qatlam tolasining yo'nalishlari odatda turli bo'lib, tayyor tuzilishga turli yo'nalishlarda sezilarli kuch va bikrlık beradi. Shunday qilib, ko'p qatlamlı o'zaklangan kompozit materialning mustahkamligi va bikrligi konstruksiyaning o'ziga xos talablariga moslashtirilishi mumkin. Tolalar bilan o'zaklangan ko'p qatlamlı kompozit materiallar zamonaviy raketa dvigatellari va suv osti kemalarining korpuslari, samolyot qanotlari panellari va korpus qismlari va boshqalarni ishlab chiqarishda keng foydalanilmoqda.

Har qanday qatlamlı kompozitning asosiy elementi – bu matritsada bir tomonlama yoki to'qilgan tolalarning tekis (ba'zan qobiqdagi kabi egri) joylashuvi bo'lgan plastina.

Tola asosiy o'zaklangan yoki yuk ko'taruvchi element bo'lib, odatda yuqori quvvat va bikrlikka ega. Matritsa organik, metall, keramika yoki uglerod bo'lishi mumkin. Matritsaning vazifasi tolalarni saqlash va himoya qilish, shuningdek, tolalar orasidagi yukni taqsimlash va ular orasidagi yukni uzatish vositasini ta'minlashdir. Agar tolaning yorilishi bo'lsa, oxirgi funksiya ayniqsa muhimdir. U yerda yirtilgan tolaning bir qismidan yuk matritsaga va keyinchalik yirtilgan tolaning boshqa qismiga, shuningdek qo'shni tolalarga o'tkaziladi. Yukni uzatish mexanizmi matritsada paydo bo'ladigan siljish kuchlanishidir; siljish kuchlanishi yirtilgan tolaning tortilishiga qarshilik ko'rsatadi. Ushbu yukni uzatish mexanizmi ipsimon tolalar bilan o'zaklangan kompozit materiallar matritsaning kuchidan kattaroq yukga bardosh beradigan vositadir.

Laminat, tolalar va matritsaning tarkibiy qismlari, mexanika nuqtayi nazaridan, turli yo'llar bilan namoyon bo'ladi. Tolalar odatda chiziqli egiluvchanlikni namoyish etadi, ammo betondagi o'zaklangan po'lat panjaralar mukammal plastik kabi harakat qiladi. Alyuminiy, shuningdek ko'plab polimerlar va ba'zi kompozit materiallar elastoplastik holatni namoyish etadi va hokazo. Hozirgi vaqtda kompozit materiallarning holatini o'rganishda ushbu modellarni amalga oshirish uchun kam ish qilingan.

Uchinchi paragrafda kompozitsion materiallardan yupqa devorlı konstruksiyalar mexanikasi sohasidagi tadqiqotlarning rivojlanish tarixi va hozirgi holati haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Birinchi bobda keltirilgan kompozitsion

materiallar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar muallifning Kornell universiteti (AQSH, 2005-2007), Virjiniya Politexnika instituti va davlat universiteti (AQSH, 2007-2008), Buffalodagi Nyu-York davlat universiteti (AQSH, 2008-2010) va Lill-1 Fan va texnologiya universiteti (Fransiya, 2013-2014) kabi nufuzli xorijiy universitetlarning ilmiy markazlari va tadqiqot laboratoriyalarida ko'p yillik tadqiqotlari asosida olingan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “Qovushqoq-elastik o'zaklangan qatlamli qobiqlar dinamikasi masalalarini shakllantirish” qovushqoq-elastik o'zaklangan qatlamli qobiqlar dinamikasi masalalarining matematik modellarini qurishga bag'ishlangan. Boshida masalaning matematik modeli Kirxgof-Lyava qobiqlarining klassik nazariyasi asosida qurilgan. Kirxgof-Lyava gipotezasi jismning ikki o'lchovli matematik modeli sifatida tanilgan, deformatsiyalanmagan normallar gipotezasini qabul qilishga asoslangan.

Kirxgof-Lyava nazariyasiga ko'ra, normal va urinma kuchlari, shuningdek, eguvchi va buralish momentlari har bir qatlam uchun kuchlanishlarning integrallash bilan belgilanadi:

$$N_x = \int_{-h/2}^{h/2} \sigma_x^{(k)} dz, \quad N_y = \int_{-h/2}^{h/2} \sigma_y^{(k)} dz, \quad T = \int_{-h/2}^{h/2} \tau_{xy}^{(k)} dz,$$

$$M_x = \int_{-h/2}^{h/2} \sigma_x^{(k)} z dz, \quad M_y = \int_{-h/2}^{h/2} \sigma_y^{(k)} z dz, \quad H = \int_{-h/2}^{h/2} \tau_{xy}^{(k)} z dz$$

yoki

$$\begin{bmatrix} N_x \\ N_y \\ T \\ M_x \\ M_y \\ H \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} A_{11}^* & A_{12}^* & A_{16}^* & B_{11}^* & B_{12}^* & B_{16}^* \\ A_{12}^* & A_{22}^* & A_{26}^* & B_{12}^* & B_{22}^* & B_{26}^* \\ A_{16}^* & A_{26}^* & A_{66}^* & B_{16}^* & B_{26}^* & B_{66}^* \\ B_{11}^* & B_{12}^* & B_{16}^* & D_{11}^* & D_{12}^* & D_{16}^* \\ B_{12}^* & B_{22}^* & B_{26}^* & D_{12}^* & D_{22}^* & D_{26}^* \\ B_{16}^* & B_{26}^* & B_{66}^* & D_{16}^* & D_{26}^* & D_{66}^* \end{bmatrix} \begin{bmatrix} \varepsilon_x^0 \\ \varepsilon_y^0 \\ \gamma_{xy}^0 \\ \chi_x \\ \chi_y \\ \chi_{xy} \end{bmatrix} \quad (1)$$

Bu yerda $A_{ij}^*, B_{ij}^*, D_{ij}^*, i, j = 1, 2, 6$ – quyidagi shaklga ega operatorlar:

$$A_{ij}^* \varphi = \sum_{k=1}^K (\bar{Q}_{ij}^* \varphi)_k (z_k - z_{k-1}), \quad B_{ij}^* \varphi = \frac{1}{2} \sum_{k=1}^K (\bar{Q}_{ij}^* \varphi)_k (z_k^2 - z_{k-1}^2),$$

$$D_{ij}^* \varphi = \frac{1}{3} \sum_{k=1}^K (\bar{Q}_{ij}^* \varphi)_k (z_k^3 - z_{k-1}^3),$$

$$\bar{Q}_{11}^* \varphi = \left[Q_{11}^* \cos^4 \theta + \frac{1}{2} (Q_{12}^* + 2Q_{66}^*) \sin^2 2\theta + Q_{22}^* \sin^4 \theta \right] \varphi,$$

$$\bar{Q}_{12}^* \varphi = \left[\frac{1}{4} (Q_{11}^* + Q_{22}^* - 4Q_{66}^*) \sin^2 2\theta + Q_{12}^* \left(1 - \frac{1}{2} \sin^2 2\theta \right) \right] \varphi,$$

$$\bar{Q}_{16}^* \varphi = \left[Q_{11}^* \sin \theta \cos^3 \theta - \frac{1}{4} (Q_{12}^* + 2Q_{66}^*) \sin 4\theta - Q_{22}^* \sin^3 \theta \cos \theta \right] \varphi,$$

$$\bar{Q}_{22}^* \varphi = \left[Q_{11}^* \sin^4 \theta + \frac{1}{2} (Q_{12}^* + 2Q_{66}^*) \sin^2 2\theta + Q_{22}^* \cos^4 \theta \right] \varphi,$$

$$\bar{Q}_{26}^* \varphi = \left[Q_{11}^* \sin^3 \theta \cos \theta - \frac{1}{4} (Q_{12}^* + 2Q_{66}^*) \sin 4\theta - Q_{22}^* \sin \theta \cos^3 \theta \right] \varphi,$$

$$\bar{Q}_{66}^* \varphi = \left[\frac{1}{4} (Q_{11}^* - 2Q_{12}^* + Q_{22}^*) \sin^2 2\theta + Q_{66}^* \cos^2 2\theta \right] \varphi,$$

$$Q_{11}^* \varphi = \frac{E_1}{1 - \mu_{12} \mu_{21}} (1 - \Gamma_{11}^*) \varphi,$$

$$Q_{12}^* \varphi = \frac{E_1 \mu_{21}}{1 - \mu_{12} \mu_{21}} (1 - \Gamma_{12}^*) \varphi = \frac{E_2 \mu_{12}}{1 - \mu_{12} \mu_{21}} (1 - \Gamma_{12}^*) \varphi,$$

$$Q_{22}^* \varphi = \frac{E_2}{1 - \mu_{12} \mu_{21}} (1 - \Gamma_{22}^*) \varphi,$$

$$Q_{66}^* \varphi = G_{12} (1 - \Gamma_{66}^*) \varphi,$$

$$\Gamma_{ij}^* \varphi = \int_0^t \Gamma_{ij}(t - \tau) \varphi(\tau) d\tau, i, j = 1, 2, 6$$

Bu yerda E_1, E_2 – cho‘zilish–siqilish uchun Yung modullari; G_{12} – siljish modullari; μ_{12}, μ_{21} – Puasson koeffitsientlari; Γ_{ij}^* – relaksatsiya yadrolari bilan integral operatorlar $\Gamma_{ij}(t)$, K – qobiq qatlamlari soni, θ – OX o‘qiga nisbatan tolalar yo‘nalishini tavsiflovchi burchak.

$\varepsilon_x^0, \varepsilon_y^0, \gamma_{xy}^0, \chi_x, \chi_y, \chi_{xy}$ o‘rta yuzasidagi deformatsiyalar va x, y, z yo‘nalishlari bo‘yicha u, v, w ko‘chishlari o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha qabul qilinadi:

$$\begin{aligned} \varepsilon_x^0 &= \frac{\partial u}{\partial x} - k_x w + \frac{1}{2} \left(\frac{\partial w}{\partial x} \right)^2, & \varepsilon_y^0 &= \frac{\partial v}{\partial y} - k_y w + \frac{1}{2} \left(\frac{\partial w}{\partial y} \right)^2, \\ \gamma_{xy}^0 &= \frac{\partial u}{\partial y} + \frac{\partial v}{\partial x} + \frac{\partial w}{\partial x} \frac{\partial w}{\partial y}, \\ \chi_x &= -\frac{\partial^2 w}{\partial x^2}, & \chi_y &= -\frac{\partial^2 w}{\partial y^2}, & \chi_{xy} &= -2 \frac{\partial^2 w}{\partial x \partial y} \end{aligned} \quad (2)$$

bunda k_x va k_y – qobiqning o‘rta yuzasining egriligi.

(1) va (2) ni harakat tenglamalariga qo‘yilganda:

$$\begin{aligned} \frac{\partial N_x}{\partial x} + \frac{\partial T}{\partial y} + p_x &= \rho \frac{\partial^2 u}{\partial t^2}, & \frac{\partial T}{\partial x} + \frac{\partial N_y}{\partial y} + p_y &= \rho \frac{\partial^2 v}{\partial t^2}, \\ \frac{\partial^2 M_x}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 M_y}{\partial y^2} + 2 \frac{\partial^2 H}{\partial x \partial y} + k_x N_x + k_y N_y + \frac{\partial}{\partial x} \left(N_x \frac{\partial w}{\partial x} + T \frac{\partial w}{\partial y} \right) + \\ &+ \frac{\partial}{\partial y} \left(T \frac{\partial w}{\partial x} + N_y \frac{\partial w}{\partial y} \right) + q &= \rho \frac{\partial^2 w}{\partial t^2} \end{aligned}$$

klassik Kirxgof-Lyava nazariyasi bo‘yicha masalaning matematik modelini tavsiflovchi nochiziqli xususiy hosilalardagi integro-differensial tenglamalar sistemasini olamiz.

Biroq, so‘nggi paytlarda ilmiy hamjamiyat orasida qatlamli anizotrop o‘zaklangan qobiqlarning dinamik holatini tavsiflovchi matematik modellarni yaratishda oddiy deformatsiyalarga qo‘shimcha ravishda siljish deformatsiyalarini hisobga olgan holda qobiq nazariyalaridan foydalanish afzalroq degan fikrlar

bildirilmoqda. Shu maqsadda ushbu dissertatsiya ishida Timoshenkoning takomillashtirilgan nazariyasi bo'yicha qovushqoq-elastik qatlamli anizotrop o'zaklangan qobiqlar dinamikasi masalasining matematik modeli ham qurilgan.

Timoshenko nazariyasiga ko'ra, normal va urinma kuchlar, eguvchi va buralish momentlari, shuningdek ko'ndalang kuchlar nisbatlardan aniqlanadi:

$$\begin{bmatrix} N_x \\ N_y \\ T \\ M_x \\ M_y \\ H \\ Q_x \\ Q_y \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} A_{11}^* & A_{12}^* & A_{16}^* & B_{11}^* & B_{12}^* & B_{16}^* & 0 & 0 \\ A_{12}^* & A_{22}^* & A_{26}^* & B_{12}^* & B_{22}^* & B_{26}^* & 0 & 0 \\ A_{16}^* & A_{26}^* & A_{66}^* & B_{16}^* & B_{26}^* & B_{66}^* & 0 & 0 \\ B_{11}^* & B_{12}^* & B_{16}^* & D_{11}^* & D_{12}^* & D_{16}^* & 0 & 0 \\ B_{12}^* & B_{22}^* & B_{26}^* & D_{12}^* & D_{22}^* & D_{26}^* & 0 & 0 \\ B_{16}^* & B_{26}^* & B_{66}^* & D_{16}^* & D_{26}^* & D_{66}^* & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & A_{44}^* & A_{45}^* \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & A_{45}^* & A_{55}^* \end{bmatrix} \begin{bmatrix} \varepsilon_x^0 \\ \varepsilon_y^0 \\ \gamma_{xy}^0 \\ \frac{\partial \psi_x}{\partial x} \\ \frac{\partial \psi_y}{\partial y} \\ \frac{\partial \psi_x}{\partial y} + \frac{\partial \psi_y}{\partial x} \\ \frac{\partial w}{\partial y} + \psi_y \\ \frac{\partial w}{\partial x} + \psi_x \end{bmatrix} \quad (3)$$

bunda $A_{ij}^*, B_{ij}^*, D_{ij}^*$ – quyidagi shaklga ega operatorlar:

$$A_{ij}^* \varphi = \sum_{k=1}^K (\bar{Q}_{ij}^* \varphi)_k (z_k - z_{k-1}), B_{ij}^* \varphi = \frac{1}{2} \sum_{k=1}^K (\bar{Q}_{ij}^* \varphi)_k (z_k^2 - z_{k-1}^2),$$

$$D_{ij}^* \varphi = \frac{1}{3} \sum_{k=1}^K (\bar{Q}_{ij}^* \varphi)_k (z_k^3 - z_{k-1}^3), i, j = 1, 2, 6,$$

$$A_{ij}^* \varphi = K_s \sum_{k=1}^K (\bar{Q}_{ij}^* \varphi)_k (z_k - z_{k-1}), i, j = 4, 5,$$

$$\bar{Q}_{44}^* = (Q_{44}^* \cos^2 \theta + Q_{55}^* \sin^2 \theta) \varphi,$$

$$\bar{Q}_{45}^* = [(Q_{55}^* - Q_{44}^*) \cos \theta \sin \theta] \varphi, \quad \bar{Q}_{55}^* = (Q_{55}^* \cos^2 \theta + Q_{44}^* \sin^2 \theta) \varphi,$$

$$\bar{Q}_{44}^* \varphi = G_{23} (1 - \Gamma_{44}^*) \varphi, \quad \bar{Q}_{55}^* \varphi = G_{13} (1 - \Gamma_{55}^*) \varphi,$$

K_s siljish koeffitsientining qiymati $f(z)$ funksiyasining turiga bog'liq bo'lib, u τ_{xz} va τ_{yz} kuchlanishlarini qobiq qalinligi bo'yicha taqsimlash qonunini tavsiflaydi. Hisoblashda biz siljish koeffitsientining qiymatlarini 5/6 ga teng deb qabul qildik. S.A.Ambartsumyan va E.Reysner plastinalarning takomillashtirilgan nazariyasida K_s uchun aynan shunday qiymatni oladi. S.P.Timoshenko ishlarida 2/3 va 8/9 qiymatlari olingan.

(3) ni harakat tenglamalariga qo'yilganda:

$$\frac{\partial N_x}{\partial x} + \frac{\partial T}{\partial y} + p_x = \rho \frac{\partial^2 u}{\partial t^2}, \quad \frac{\partial T}{\partial x} + \frac{\partial N_y}{\partial y} + p_y = \rho \frac{\partial^2 v}{\partial t^2},$$

$$\frac{\partial Q_x}{\partial x} + \frac{\partial Q_y}{\partial y} + k_x N_x + k_y N_y + \frac{\partial}{\partial x} \left(N_x \frac{\partial w}{\partial x} + T \frac{\partial w}{\partial y} \right) +$$

$$+ \frac{\partial}{\partial y} \left(T \frac{\partial w}{\partial x} + N_y \frac{\partial w}{\partial y} \right) + q = \rho \frac{\partial^2 w}{\partial t^2},$$

$$\frac{\partial M_x}{\partial x} + \frac{\partial H}{\partial y} - Q_x = \frac{\rho h^2}{12} \frac{\partial^2 \psi_x}{\partial t^2}, \quad \frac{\partial H}{\partial x} + \frac{\partial M_y}{\partial y} - Q_y = \frac{\rho h^2}{12} \frac{\partial^2 \psi_y}{\partial t^2}$$

Timoshenkoning takomillashtirilgan nazariyasiga ko'ra kompozitsion materiallardan qatlamli o'zaklangan qobiqlar dinamikasi masalalarining matematik modellarini tavsiflovchi noxiziqli xususiy hosilalardagi integro-differensial tenglamalar sistemasini olamiz.

Hisoblashlarda eng oddiy va shu bilan birga juda keng tarqalgan relaksatsiya yadrolari sifatida Koltunova-Rjanitsin kuchsiz-singulyar yadrolari ko'rinishda ishlatilgan:

$$\Gamma_{ij}(t) = A_{ij} e^{-\beta_{ij} t} t^{\alpha_{ij}-1}, \quad 0 < \alpha_{ij} < 1, \quad i, j = 1, 2, 6, \quad (4)$$

bunda $A_{ij}, \beta_{ij}, \alpha_{ij}$ – tajribalardan aniqlangan qovushqoqlikning reologik parametrlari.

O'zaklangan tolalarning turli yo'nalishlarida materiallarning qovushqoq-elasticligining reologik parametrlarini aniqlash uchun I.M.Tyuneeva ishida keltirilgan tajribalar natijalaridan foydalanamiz. Muallif o'z ishida tajribalar asosida ba'zi o'zaklangan stekloplastiklarning, masalan, Tekstolit, KAST-V, SVAM va EDFning qovushqoqligining reologik parametrlarini olgan. Ishda keltirilgan parametrlar OX o'qiga nisbatan $0^0, 45^0$ va 90^0 o'zaklangan tolalar yo'nalishlari bo'lgan namunalarga mos keladi. Ushbu dissertatsiya ishida tolalarning ixtiyoriy yo'nalishi bo'lgan namunalar uchun qovushqoqlikning reologik parametrlarining qiymatlari interpolatsiya formulalaridan foydalangan holda eksperimental natijalardan olingan. 1-jadvalda interpolatsiya formulalari yordamida olingan ikki turdagi stekloplastik (KAST-V va EDF) uchun A qovushqoqligining reologik parametrlari berilgan.

1-jadval

O'zaklangan tolalar yo'nalishi burchagining turli qiymatlarida A reologik qovushqoqlik parametrining qiymatlari

Stekloplastik	Tolalar yo'nalishi						
	0^0	15^0	30^0	45^0	60^0	75^0	90^0
KAST-V	0.0099	0.0159	0.0195	0.0208	0.0197	0.0162	0.0104
EDF	0.0016	0.0043	0.006	0.0067	0.0064	0.0051	0.0028

Tyuneevaning ishida bo'lgani kabi α reologik parametrning qiymatlari tolalar yo'nalishidan qat'iy nazar doimiy bo'ladi. β reologik parametrning qiymatlari shunchalik kichikki, ularning ta'sirini e'tiborsiz qoldirish mumkin.

Ikkinchi bobda olingan xususiy hosilali noxiziqli integro-differensial tenglamalar sistemasi Bubnov-Galerkin usuli yordamida uchinchi bobning **“Qovushqoq-elastic qatlamli o'zaklangan dinamikasi masalalarining hal qiluvchi tenglamalari sistemalari”** birinchi va ikkinchi paragraflarida keltirilgan kuchsiz-singulyar relaksatsiya yadroli noxiziqli oddiy integro-differensial tenglamalar sistemalariga keltiriladi.

